INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal

Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENINKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:
+998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никоноров Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович – к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузаков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н., (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф..э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич — PhD, доцент

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Accounting, economic analysis and audit

Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит

UDK: 657.1

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.5.5.2026.36

BUXGALTERIYA HISOBI MILLIY STANDARTLARINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA UYG'UNLASHTIRISHNING MUHIMLIGI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

ВАЖНОСТЬ ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

THE IMPORTANCE OF HARMONIZING NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS WITH INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Received: May 14, 2026 May: May 16, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada buxgalteriya hisobini yuritish, buxgalteriya hisobini milliy standartlari hamda moliyaviy hisobotga muvofiq belgilangan minimal talablarni qo'llanilishi, BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonunchilikda belgilangan tartibda joriy qilinishi haqida bayon qilingan. Shuningdek, hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi keskin ijobiy o'zgarishlar, davlatlar o'rtasidagi integratsiyalashuv jarayonining jadallashuvi natijasida O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning dolzarbligi tahlil qilingan. Maqolada buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirishning muhimligi bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobining milliy standartlari,moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, transformatsiyalashuv, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, integratsiyalashuv

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы ведения бухгалтерского учёта, применения минимальных требований, установленных национальными стандартами бухгалтерского учёта и нормативами финансовой отчётности, а также внедрения международных стандартов финансовой отчётности в порядке, определённом законодательством, на основе национальных стандартов (НСБУ).

Кроме того, проанализирована актуальность перехода Республики Узбекистан на международные стандарты финансовой отчётности в условиях современных существенных позитивных изменений в мировой экономике, а также ускорения процессов интеграции между государствами.

В статье представлены выводы и предложения по вопросам гармонизации национальных стандартов бухгалтерского учёта с международными стандартами финансовой отчётности.

Ключевые слова: Национальные стандарты бухгалтерского учёта, международные стандарты финансовой отчётности, трансформация, хозяйствующие субъекты, гармонизация с международными стандартами, интеграция.

Abstract: This article discusses the organization of accounting practices, the application of minimum requirements established in accordance with national accounting standards and financial reporting, as well as the implementation of international financial reporting standards based on financial statements prepared under national standards in accordance with procedures defined by legislation. Furthermore, the study analyzes the growing relevance of transitioning to International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan, considering the significant positive changes in the global economy and the acceleration of integration processes among countries. The article also provides conclusions and recommendations regarding the importance of harmonizing national accounting standards with international financial reporting standards.

Keywords: national accounting standards, international financial reporting standards, transformation, business entities, harmonization with international standards, integration.

KIRISH

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari-bu bir mamlakat ichida buxgalteriya hisobini yuritishda nazarda tutilgan tartib-qoidalarni o‘zida bevosita mujassamlashtirgan hamda mazkur mamlakatlarda amal qiladigan me’yoriy hujjatlar hisoblanadi. Mamlakatimiz buxgalteriya tizimida ham xalqaro standartlardan foydalanish, ularni milliy buxgalteriya hisobining standartlariga uyg’unlashtirish bo’yicha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xusysan, O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etilishi bo’yicha vakolatli organ sifatida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq uyg’unlashtirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Mazkur masalada Osiyo Taraqqiyot banki esa iqtisodiyot boshqaruvini jadallashtirishga muvofiq Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga kichik va o’rta biznes korxonalari uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotning milliy standartlarini ishlab chiqishda ko’mak bermoqda.

Darhaqiqat,bugungi kunda iqtisodiyotning xalqaro darajada integratsiyalashuvi jarayonida xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilishda,shuningdek xalqaro maydonda yuqori pog’onalarga erishishda avvalombor buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirishni hamda korxonalarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq transformatsiya qilish haqida iqtisodchi olim Karimov A.A. va Raxmatullayevlar (2019) o’z ilmiy ishlarida quyidagi fikrlarni keltirib o’tganlar: “Transformatsiya” ixtisoslashtirilgan dasturlarning majburiy mavjudligini talab qilmaydi va elektron jadvallar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Transfotmatsiya-bu tashkilotning ma’lumotlarini boshqa buxgalteriya standartiga qayta guruhlashdir. Birlashtirilgan MHXS bayonotlarini tayyorlashning ikki usuli bor. Birinchi usul yordamida, avvalo hisobot guruhining har bir kompaniyasi uchun xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlanadi,keyin ushbu ma’lumotlar umumlashtirilib MHXSga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni olish uchun tuzatiladi. Ikkinchi usulda esa, buxgalteriya hisobining milliy standartlariga asosan,yig’ma bayonotlarni tayyorlashni boshlanishiga va uni o’zgartirgandan so’ng MHXS ga muvofiq tayyorlashni o’z ichiga oladi. [1].

Tashnazarov S.N. fikriga ko’ra, (2018) dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg’or tajribasiga asosan ishchi balans tuzish amaliyotida transformatsiyaga o’tishimiz zarur. Ishchi balans shyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o’tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval(registr) hisoblanadi. [2].

Rossiya olimlari tomonidan boshqa manbalarda quyidagicha ta’rif berilgan: (2021) Transformatsiya-Rossiya standartlari bo’yicha tuzilgan hisobot ma’lumotlari bazasi asosida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida klassifikatsiyalar parametrlarini o’zgartirish va hisob ob’yektlarini baholash hamda ular to’g’risida axborotlarni ochiqlash yo’li bilan MHXS lariga asosan hisobot tuzish jarayonidir. [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada bugungi kunda buxgalteriya tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish,shuningdek xalqaro standartlarni transformatsiya qilishning muhimligi va ahamiyati bo’yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o’rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida analiz va sintez,kuzatish,tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxgalteriya hisobining milliy standarti O‘zbekiston Respublikasida qonunosti hujjatlari bo‘lib hisoblanadi, ular O‘zbekiston Respublikasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi hamda Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingandan keyin kuchga kiritiladi. Barcha xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar buxgalteriya hisobini milliy standartlariga amal qilishi majburiy hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, amaldagi talablar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar buxgalteriya hisobining milliy standartlarining talablariga asosan faoliyatlarini tashkil etib amalga oshirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buxgalteriya hisobini milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun quyidagi muhim vazifalar sifatida belgilab olindi:

- Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o‘rtasidagi muhim farqlanishlar bo‘yicha keng qamrovli axborotlar tayyorlash;

- Buxgalteriya hisobini yangi milliy standartlarini ishlab chiqish va amaldagi standartlarga o‘zgartirishlar kiritish.

Mamlakatimiz buxgalteriya tizimida ham xalqaro standart talablaridan foydalanish, ularni milliy buxgalteriya hisobining standartlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha barcha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish bo‘yicha vakolatli organ sifatida buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ni MHXSga muvofiq uyg‘unlashtirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida amaldagi buxgalteriya hisobini milliy standartlariga o‘zgartirishlar kiritish yoki yangi standartlarni ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayni vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tadbiq etish jarayonini muvofiqlashtirish va uni metodologik ta’minlsh o‘zining muhimligini ifodalaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlaydigan tashkilotlar buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi. 1-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo‘llash” moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishga muvofiq tashkilot moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha moliyaviy holat to‘g‘risidagi kirish hisobotini MHXS ga o‘tish sanasiga tayyorlashi lozim va bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq hisob yuritishning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Shunigdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish sanasi tashkilot o‘zining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha birinchi moliyaviy hisobotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan, to‘liq qiyoslanuvchi ma’lumotlarni taqdim qiladigan eng oldingi davrining boshi hisoblanadi.

2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarning to‘liq to‘plami “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” nomli 1-sonli BHMSda belgilangan bo‘lib,ushbu standartda moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan umumiy talablar belgilangan hamda tashkilot moliyaviy hisobotning to‘liq to‘plamini kamida yillik asosida, minimal qiyosiy ma’lumot sifatida barcha moliyaviy hisobotlardan ikkitadan taqdim etishi lozimligini belgilaydi.

Buxgalteriya hisobini milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq uyg‘unlashtirishda transformatsiya ixtisoslashtirilgan dasturlarning majburiy mavjudligini talab qilmaydi va elektron jadvallar yordamida amalga oshirilishi mumkin.Transformatsiya-bu hisobot sanasida amalga oshiriladigan jarayon bo’lib,milliy buxgalteriya standartlari bo’yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot ko’rsatkichlarini moliyaviy hisobotning barcha elementlarini tan olish,o’lchash va oshkor qilishning tegishli tamoyillarini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari formatiga o’tkazish zarur bo’lgan barcha tuzatishlarni o’z ichiga oladi.

Shuni ta’kidlash joizki, moliyaviy hisobot transformatsiyalashning tartib va qoidalarini belgilaydigan MHXS lari mavjud emas. Shuning uchun har bir korxona o’zining hisob siyosatida transformatsiyalash asoslarini mustaqil ishlab chiqishi lozim.

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirilgan buxgalteriya hisobining yangi tahrirda ishlab chiqilgan milliy standartlari haqida ma’lumotlar keltirilgan..

1-jadval.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirilgan Buxgalteriya hisobining yangi tahrirda ishlab chiqilgan milliy standartlari haqida ma’lumot

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan BHMS	MHXSga uyg‘unlashtirilgan standartlar
1-sonli BHMS “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” (2024 yil 6 avgust, ro’yxat raqami 3544)	1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” (IAS (IFRS) 1)
5-sonli BHMS “Asosiy vositalar” (2024 yil 9 avgust, ro’yxat raqami 3546)	16-sonli “Asosiy vositalar” (IAS (IFRS) 16)
22-sonli BHMS “Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi” (2024 yil 19 dekabr, ro’yxat raqami 3587)	1-sonli “Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari” (IAS (IFRS) 21)
9-sonli BHMS “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” (27.12.2024 yil, ro’yxat raqami 3592)	7-sonli “Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot” (IAS (IFRS) 7)
7-sonli BHMSlarga 22-sonli BHMSdan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi (11.02.2025 yil, ro’yxat raqami 3607)	21-sonli “Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari” (IAS (IFRS) 21)

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg‘unlashtirilgan buxgalteriya hisobining yangi tahrirda ishlab chiqilgan milliy standartlari haqida ma’lumotlar aks ettirilgan.Yangi tahrirda ishlab chiqilgan “Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati” (2024 yil 6 avgust, ro’yxat raqami 3544) 1-sonli BHMC, 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” (IAS (IFRS) 1) MHXSga uyg‘unlashtirilgan, «Asosiy vositalar» (2024 yil 9 avgust, ro’yxat raqami 3546) 5-sonli BHMC, 16-son «Asosiy vositalar» (IAS (IFRS) 16) MHXS ga uyg’unlashtirilgan, «Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi» (2024 yil 19 dekabr, ro’yxat raqami 3587) 22-sonli BHMS, 21-son «Valyuta kurslaridagi o‘zgarishlarning ta’sirlari» (IAS (IFRS) 21) MHXSga uyg’unlashtirilgan, «Pul oqimlari

to‘g‘risidagi hisobot» (27.12.2024 yil, ro’yxat raqami 3592), 9-sonli BHMC, 7-son «Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot» (IAS (IFRS) 7) MHXS ga uyg’unlashtirilgan, 7-sonli BHMSlarga 22-sonli BHMS dan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi (11.02.2025 yil, ro’yxat raqami 3607).

Ta’kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentning “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori ishlab chiqildi. Mazkur qarorda xorijning ilg’or tajribasini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo’yicha “Yo’l xaritasi” ishlab chiqildi. Ushbu qarorning muhimligi shundan iboratki, ushbu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hujjatlarini O‘zbekiston Respublikasida tan olish masalasini hal qilib berdi [4].

Mazkur “Yo’l xaritasi”ga asosan,buxgalteriya hisobining milliy standartlarii moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg’unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun quyidagi muhim ustuvor vazifalar belgilab olindi:

- Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda buxgalteriya hisobining milliy standartlarii va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o’rtasidagi muhim farqlanishlar bo’yicha keng qamrovli axborotlar tayyorlash;
- Buxgalteriya hisobining yangi milliy standartlarini ishlab chiqish va amaldagi standartlarga o’zgartirishlar kiritish kabilardan iborat.

Natijada, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlarini o’zgartirishlar kiritish yoki yangi standartlarni ishlab chiqish eng dolzarb vazifalardan birga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxgalteriya hisobini milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg’unlashtirishning muhimligi bo’yicha quyidagi xulosalar qilindi:

Birinchidan: Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda, xususan buxgalteriya hisobida xalqaro standartlarning joriy qilinishi natijasida yurtimiz xalqaro darajadagi axborotlardan,foydalanuvchilarga esa mazmunli,tushunarli va sifatli bo’lgan ma’lumotlarni yetkazib berish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu esa,o’z navbatida dunyo bozorida investitsiyalarning faol oqimini takomillashtirishga hamda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yanada ko’proq investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.Har bir tarmoq va sohada jalb qilingan xorijiy investitsiyalar, tarkibiy o’zgarishlar, ishlab chiqarish samaradorligini yanada kengaytiradi.

Ikkinchidan: Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xalqaro standartlarning qo’llanilishi natijasida moliyaviy axborotning boshqa mamlakatlar iqtisodiy axborotlari bilan taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada, axborotdan foydalanuvchilarga ishonchli qaror qabul qilish uchun yordam beradi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Azimova Hulkar Egamberdiyevna “Buxgalteriya hisobi va auditi” kafedrasi dotsent v.b. / Азимова Хулкар Эгамбердиевна- и.о.доцента кафедры «Бухгалтерский учёт и аудит» / **Azimova Hulkar Egamberdiyevna** Acting Associate Professor, Department of Accounting and Audit
ORCID: 0009-0007-4468-6533

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonuni 2016 yil 13-aprel O’RQ-404-son
2. Tashnazarov S.N. “Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish” (MHXS va ilg’or xorijiy tajribalar asosida).Monografiya
3. Shokiraliyevich, G. A. I. (2021). Increasing The Income Of The Population And Reducing. The Tax Burden As A Key Factor In Improving The Living Standards Of The Population. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(07), 7-10
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori.

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz